



YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 158 (947), 2023-yil 10-avgust, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNING DOLZARB MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan 9-avgust kuni o'tkazilgan telefon orqali muloqotida O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va faol gumanitar almashinuvni davom ettirishga alohida e'tibor qaratildi.

Ikki mamlakat yetakchilari bo'lajak tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqib, yaqin muddatlarda qo'shma Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishini, O'zbekiston — Rossiya hududlar, ta'lim va media forumlarini o'tkazish muhimligini ta'kidladilar.

Mintaqaviy hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O'ZA

SPORT SOHASIDAGI VAZIFALAR BO'YICHA AXBOROT BERILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga sport sohasidagi yirik tadbirlar va rejalar haqida axborot berildi.

Yurtimizda sport ancha rivojlanib bormoqda. Futbol, voleybol, boks, kurash, shaxmat, tennis, og'ir va yengil atletikalarning ko'plab turlari ommalashgan. Davlatimiz rahbari g'oyasi bilan tashkil etilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" yosh avlod orasida jismoniy madaniyatni yanada keng yoyishga xizmat qilmoqda.

Taqdimotda ommaviy sport, etnosport va gimnastikani rivojlantirish bo'yicha takliflar ko'rib chiqildi.

Xususan, "Besh tashabbus olimpiadasi" dagi sport turlari sonini 9 tadan 12 tagacha ko'paytirish hamda ilk bor nogironligi bo'lgan shaxslar o'rtasida ham 5 ta yo'nalishda o'tkazish taklif qilinmoqda. Har yili Navro'z bayrami arafasida Surxondaryoda o'tkazib kelinayotgan xalqaro chavandozlar musobaqasini yurtimizning boshqa hududlarida ham tashkil qilish mo'ljallanmoqda. Yakkakurashlar bo'yicha salohiyatni to'g'ri yo'naltirish maqsadida barcha sport maktablarida qo'l yangi to'garaklarini ochish belgilanmoqda.

Ma'lumki, 2022-yil 25-mayda Prezidentning "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Unda, jumladan, Xiva shahrida har ikki yilda bir marta Xalqaro etnosport festivali o'tkazilishi belgilangan.

Ilk festivalni joriy yil 7-10-sentabr kunlari Ichan qal'ada o'tkazish rejalashtirilmoqda. Uning doirasida xalq o'yinlari va sport musobaqalari, hunarmandchilik ko'rgazmalari, qovun sayli, osh pishirish chempionati, sahnalashtirilgan dasturlar bo'lib o'tadi.

Davlatimiz rahbari festivalga yuqori darajada tayyorgarlik ko'rish, ishtirokchilar va turistlarga barcha qulayliklarni yaratish, Xiva shahrida "Xalqaro etnofestival bog'i"ni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Prezidentimizning 2022-yil 23-dekabr dagi qaroriga muvofiq, gimnastika sport turlarini rivojlantirish borasida ham ko'p ishlar qilinmoqda. Xususan, Nukus, Samarqand va Farg'ona shaharlarida Gimnastika sport turlariga tayyorlash markazlari tashkil etilmoqda. Ular ixtisoslashtirilgan sport-ta'lim muassasasi hisoblanadi, bitiruvchilarga murabbiy va seleksioner mutaxassisligi bo'yicha diplom beriladi. Hozirda markazlar uchun binolar qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlashga doir loyihalar ishlanmoqda. Mazkur sport muassasalari 2024/2025-o'quv yilidan faoliyat boshlaydi.

Davlatimiz rahbari bu markazlarda sportchilarni tayyorlashga oid eng ilg'or uslublarni joriy etish, diyetologiyani rivojlantirish, o'quvchilarning qatnoviga qulaylik yaratish zarurligini ta'kidladi.

O'ZA

"O'ZBEKISTON — 2030" STRATEGIYASI

yangi maqsadlar va marralarni ko'zlaydi



INSON QADRI UCHUN



Shu kunlarda Prezidentimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasi loyihalari keng jamoatchilik e'tiborida bo'lib turibdi.

Davomi 3-betda

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

DASTURXONIMIZ TO'KIN, RIZQIMIZ BUTUN

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari tomonidan amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarga qaramay, oziq-ovqat masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Binobarin, jahon hamjamiyati bir necha o'n yillar mobaynida ushbu yo'nalishdagi muammolarga yechim topishga harakat qilib kelyapti. Ammo hozirgi jarayon insoniyat uchun yangi hodisa sifatida namoyon bo'lib, o'zining keng qamrovligi bilan oldingilardan farq qiladi. Jumladan, hozir oziq-ovqat bozori va unga aloqador tarmoqlarda tushunsiz jarayon kuzatilyapti.

Bir tomondan, BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning so'nggi prognozlariga bug'doy, guruch, shakar, go'sht, baliq va sut mahsulotlari, o'simlik yog'i kabi bir qancha asosiy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining o'sishi va zaxiralarning ko'payishini ko'rsatmoqda. Boshqa tomondan esa, so'nggi o'n yil davomida kuzatilmagan inflyatsiyaning eng ko'p qo'llaniladigan o'lchovi bo'lmish iste'mol narxlarini indeks tez sur'atlar bilan ko'tarilib borayotir.

Davomi 4-betda



DAVLAT XIZMATLARI

AHOLI MANFAATI — ENG ASOSIY MASALA

Murojaat yechimiga sud aralashdi

Toshkent viloyati adliya boshqarmasiga "Obod ta'mir" mas'uliyati cheklangan jamiyatidan murojaat kelib tushdi. Unda viloyat hokimligining "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK MCHJsi bajarilgan ishlar uchun 562,7 million so'm pulni to'lab bermayotgani aytilgan. Murojaatni o'rganish jarayonida chindan ham mablag' to'lab berilmagan ma'lum bo'ldi va viloyat adliya boshqarmasi tomonidan ushbu holat yuzasidan O'rta Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud arizani qanoatlantirib, "Obod ta'mir" MCHJga

bajargan ishi uchun pul to'lab berilishi ta'minlandi.

Boshqarmaga fuqaro I.Rozioqov turar joyi Nurafshon shahri hokimligi tomonidan davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olingani, ammo oradan qancha vaqt o'tsa-da, tovon puli to'lanmay kelinayotgani haqida murojaat qildi.

Holat o'rganilganda 334 million so'm tovon puli to'lanmagan ma'lum bo'ldi va boshqarma tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha O'rta Chirchiq tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritildi. Tez fursatda sud fuqaro foydasiga 334 million so'm tovon puli undirilishini belgiladi.

Davomi 2-betda

IJTIMOY INFRATUZILMA



OBIHAYOT UCHUN INVESTITSIYALAR

Nafaqat insoniyat, balki butun borliq suv bilan tirik. Aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash har qanday zamon va makonda ham eng dolzarb va mas'uliyatli vazifalardan biri bo'lib kelgan. Ayni paytda dunyoning ko'plab hududlarida toza ichimlik suv taqchil ekani ham sir emas. Bu borada xalqaro tashkilotlar tomonidan keng ko'lamlı chora-tadbirlar ko'rilib, uning oqibatlarini kamaytirishga harakat qilinmoqda.

Davomi 4-betda

KUN MAVZUSI

KORRUPSIYA — ILLAT, UNGA QARSHI KURASHISH ESA KATTA MAS'ULIYAT

Bugungi kunda korrupsiya jahon miqyosida dolzarb muammolardan biri sifatida tan olingan bo'lib, ushbu illat har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy putur yetkazishi bilan xavflidir. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 20-dekabr dagi Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida "...Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'yan yuksak marralarga erisha olmaymiz", deb bejiz ta'kidlanmagandi.

Shu sababli yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimiz farovonligini yanada oshirish va faol jamiyatni shakllantirishga qaratilgan islohotlar doirasida barcha sohalarida korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish muhitini shakllantirish talab etiladi.

Bevosita tizimda mazkur yo'nalishda qilinayotgan ishlarga to'xtalishdan avval Markaziy bank aholi va tadbirkorlik subyektlariga bevosita bank-moliya xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanmasligi sababli uning faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlar, umuman olganda, past darajada ekanini ta'kidlash lozim.

Shundan kelib chiqib, Markaziy bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarni tashkil etishda asosiy e'tibor "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun, Prezidentning sohaga oid farmon va qarorlarida korrupsiyaning oldini olish, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha belgilangan vazifalar ijrosiga qaratilmoqda.

Jumladan, Markaziy bank markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalar va tasarrufdagi barcha korxonalarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Markaziy bank tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishga oid me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan holda, korrupsiyaga qarshi xalqaro standart (ISO 37001: 2016) talablari asosida 13 ta ichki me'yoriy hujjat ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Davomi 2-betda

KUN MAVZUSI

KORRUPSIYA — ILLAT, UNGA QARSHI KURASHISH ESA KATTA MAS'ULIYAT



Mamarizo NURMURATOV,
O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki raisi

Boshlanishi 1-betda

Markaziy bankka ishga qabul qilish jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish maqsadida O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga binoan ishga qabul qilishning ochiq tanlov tizimi joriy qilindi.

Mazkur tizim doirasida inson omili ta'sirini kamaytirish maqsadida bo'sh ish o'rinlari bo'yicha e'lonlarning bank rasmiy veb-saytida joylashtirilishi, nomzodlar hujjatlarini maxsus telegram bot orqali qabul qilinish va tegishli test sinovlarining onlayn shaklda o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan.

O'z navbatida, xaridlar jarayoni shaffofligi va xolisligini ta'minlash yuzasidan Markaziy bank tizimidagi ichki nazorat tuzilmalari tomonidan xaridlarni tender, tanlov va to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishda ishtirokchilarda affillanganlik, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa korrupsiyaviy xatarlar oldini olishga qaratilgan o'rganishlar o'tkazish amaliyoti joriy qilingan. Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida 91 ta xarid shartnomasi bo'yicha shunday o'rganishlar o'tkazildi.

Xalqaro tajriba ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaning oldini olishning eng samarali mexanizmlaridan biri davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirishdir. Mazkur mexanizm yuklatilgan vazifa va funksiyalar bajarilishida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni yuzaga keltiruvchi eng asosiy — inson omilining salbiy ta'sirini bartaraf etish (kamaytirish) imkonini beradi.

Bu borada ham Markaziy bank tomonidan qator ishlar olib borilgan. Jumladan, litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish to'g'risidagi arizalarni, faoliyatni boshlaganlik va tugatganlik haqidagi xabarnomalarni qabul qilish hamda ularni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha tegishli hujjatlarni berish jarayoni to'liq raqamlashtirilib, mazkur amaliyotlarni maxsus elektron platforma (<https://cbbu.uz/oz/services/support>) orqali amalga oshirish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, bank-moliya sohasida tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, litsenziyalash, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadida lombard va mikromoliya tashkilotlari faoliyati litsenziyalash tartibidan xabardor qilish va hisob ro'yxatdan o'tkazish tartibi, bank filiallari va mikromoliya tash-

kilotlari filiallarini tashkil etish ham ruxsat berish tartibidan xabardor qilish tartibiga o'tkazildi.

O'z navbatida, Markaziy bank tavsiyalari asosida bank tizimida aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada tijorat banklarining mobil ilovalari orqali omonat, kredit va boshqa bank xizmatlaridan foydalanish ko'lami yildan-yilga oshib bormoqda.

Jumladan, bank tizimida mijozlarga bank hisobvaraqlarini masofadan identifikatsiya qilish orqali ochish, xizmatlardan onlayn rejimda bankka bormasdan masofaviy tarzda foydalanish imkonini beruvchi raqamli biometrik identifikatsiya qilish tizimi (Face ID) joriy qilindi.

Bugungi kunda mobil bank va to'lov



“ XALQARO TAJRIBA KO'RSATMOQDAKI, KORRUPSIYANING OLDINI OLIISHNING ENG SAMARALI MEKANIZMLARIDAN BIRI DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHDIR. MAZKUR MEKANIZM YUKLATILGAN VAZIFA VA FUNKSIYALAR BAJARILISHIDA KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI ENG ASOSIY — INSON OMILINING SALBIY TA'SIRINI BARTARAF ETISH (KAMAYTIRISH) IMKONINI BERADI.

xizmatlarini ko'rsatishda mazkur texnologiyadan foydalanadigan tijorat banklari 26 tani, to'lov tashkilotlari 13 tani, marketpleyslari soni esa 4 tani tashkil

etmoqda. Bunda banklar va to'lov tashkilotlarining mobil ilovalari orqali raqamli identifikatsiyadan o'tgan mijozlar soni 3,5 milliontaga yetdi.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari shaffofligini ta'minlash va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida yagona elektron platforma (oilakredit.uz) orqali onlayn imtiyozli kreditlar ajratish tartibi joriy qilindi.

Markaziy bank tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olishda uning kollegial organlari ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Bugungi kunda qonunchilikda Markaziy bankka yuklatilgan vazifalar ijrosi bo'yicha, shu jumladan, banklar, to'lov tashkilotlari va to'lov tizimlari operatorlari faoliyatini litsenziyalash hamda ularning faoliyatini tartibga solish va nazorat, shuningdek, ishga qabul qilish hamda xaridlarni amalga oshirishga doir barcha qarorlar faqat kollegial tartibda Markaziy bank boshqaruvi, maxsus tashkil etilgan qo'mita, komissiya

va boshqa kollegial organlar yig'ilishlarida muhokama qilish yo'li bilan qabul qilinadi.

Boshqacha aytganda, qarorlar qabul qilinishi biror yakka shaxsning emas, balki kollegial organlar a'zolari ovozigacha bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, Markaziy bank faoliyatini tashkil etishda manfaatlar to'qnashuvi, favoritizm va boshqa korrupsiyaviy holatlarning oldi olinishiga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalishtirish sifatida Markaziy bank tomonidan korrupsiyaga qarshi kompayens nazorat masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, joriy yil iyul oyida Markaziy bank ichki nazorat tuzilmasi mutaxassislarining korrupsiya darajasi bo'yicha xalqaro reytingda yuqori o'rinlarda (2023-yilda 41 o'rin) borayotgan Gruziya Milliy bankiga tajriba almashish tashrifi tashkil etildi.

Gruziya Milliy banki faoliyatining muhim jihati shundaki, u yerda bank tomonidan bajariladigan 800 dan ortiq vazifa, funksiya va amal (protsedura)ni qamrab oluvchi xatarlarni boshqarish tizimi joriy qilingan.

Aynan mana shu tizim doirasida Gruziya Milliy banki faoliyatidagi barcha, jumladan, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, yuzaga kelish ehtimoli va salbiy ta'siri darajasini baholash hamda ularni bartaraf etish (ta'sirini kamaytirish) choralarini ko'riladi.

Gruziya Milliy banki ijobiy tajribasini e'tiborga olib, bugungi kunda Markaziy bankda Xalqaro valyuta jamg'armasi texnik ko'magini jalb qilgan holda, xatarlarni boshqarish tizimini joriy qilish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Markaziy bank tizimida korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rish, uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz muhitni shakllantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar kelgusida ham izchil davom ettiriladi.

DAVLAT XIZMATLARI



Erkin DORIYOV,
Toshkent viloyati adliya
boshqarmasi mas'ul xodimi

Boshlanishi 1-betda

Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin. Viloyat adliya boshqarmasiga joriy yilning o'tgan olti oyida 4 ming 565 ta murojaat kelib tushdi. Ularning 4 ming 317 tasi, ya'ni 94 foizi hal etilgan — 2 ming 866 tasi qanoatlantirilgan, 1 ming 451 ta murojaat muallifiga huquqiy tushuntirish berilgan.

Murojaatlarning asosiy qismini mehnat munosabatlari, ijtimoiy himoya, uy-joyga bo'lgan huquqlar, ta'lim va nafaqalar olish kabilar tashkil etgan. Boshqarma tomonidan aholi murojaatlarini ko'rib chiqishda, birinchi navbatda, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga, ularga huquqiy yordam berishga e'tibor berilmoqda. Zero, inson uchun uning huquqi va qonuniy manfaatlaridan muhim qadriyat yo'q.

Intellectual mulk himoyada

Bugungi kunda intellektual mulkka oid qonunchilik izchil isloh etilib, sohadagi boshqaruvi takomillashtirish, muallif va huquq egalari qonuniy manfaatlarini yetarli darajada himoya qilishga katta e'tibor qaratilayapti.

Prezidentimizning 2021-yil 28-yanvardagi "Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, kichik va o'rta biznes subyektlari tadbirkorlik faoliyatini raqobatbardoshlik muhitida yuritishida aynan intellektual mulk — ixtiro, sanoat namunasi, tovar belgisi muhim o'rin tutadi.

Joriy yilning ikkinchi choragida viloyat hududidagi bozorlar, savdo shoxobcha-

AHOLI MANFAATI — ENG ASOSIY MASALA

lari va dorixonalarda, shuningdek, tumanlarda xizmat ko'rsatish belgilardan foydalanish holati bo'yicha 25 ta profilaktik kuzatuv tadbiri o'tkazilib, 96 ta kontrafakt mahsulot aniqlandi. Natijada 21 ta taqdimnoma hamda 6 ta ma'muriy material rasmiylashtirilib, ko'rib chiqish uchun tegishli sudlarga yuborildi. Bundan tashqari, 250 ga yaqin "Kontrafakt mahsulotlar katalogi"ni viloyat hududida joylashgan bozorlar, yirik savdo majmualari va do'konlarga tarqatish orqali tushuntirish ishlari olib borildi.

Masalan, O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni bilan kelishgan holda, boshqarma tomonidan "Mars Incorporated" kompaniyasi vakili J.Oripovning kompaniyaga tegishli

ga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha murojaatlardir.

Joriy yilning 6 oyida 16 ming 924 ta tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lsa, uning 3 ming 666 tasi yuridik shaxslar, 13 ming 258 tasi esa tadbirkorlik subyekti hisoblanadi. DXMlar orqali xorijiy investitsiya ishtirokidagi 26 ta qo'shma va xorijiy korxonada hamda xorijiy sarmoya ishtirokidagi 11 ta korxonada ro'yxatdan o'tgan.

Olis, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi aholining davlat xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojini qondirish maqsadida 6 ming 561 ta sayyor davlat xizmati tashkil etildi.

Viloyat adliya boshqarmasi vakolatli tashkilot va idoralarning davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi faoliyatini o'rganishda, ayrim tashkilotlar ishida

buzilish holatiga yo'l qo'ygan. Ularning 9 mingga yaqinida ishni ko'rib chiqish muddati buzilgan bo'lsa, 175 tasida murojaatlar asossiz rad etilgan.

Qonunbuzilish holatlari idoralar kesimida tahlil qilindagina ko'rinadiki, kommunal xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarda 3 ming 290 ta, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining hududiy tuzilmalarida 1 ming 333 ta, Davlat kadastrlar palatasi hududiy tuzilmalarida 1 ming 329 ta, sog'liqni saqlash idoralarda 802 ta, soliq organlarida 663 ta qonunbuzilish holatiga yo'l qo'yilgan.

Boshqarma tomonidan vakolatli idoralarga 214 ta ogohnoma, 15 ta taqdimnoma kiritilib, 40 nafar mansabdor shaxs intizomiy javobgarlikka tortildi. 190 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy jazo choralarini ko'rsatildi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarni identifikatsiyalashning mobil-ID tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham aholiga juda katta qulaylik yaratdi. Mazkur qaror elektron shaklda foydalanish mumkin bo'lgan davlat xizmatlari bo'yicha aholining idorama-idora sarson bo'lib yurishining oldini oladi, xizmatlardan foydalanish uchun uzundan-uzoq navbat kutib turishga chek qo'yadi.

Mobil-ID tizimi foydalanuvchilarga elektron raqamli imzoni qo'llamagan holda, kreditlash sohasida ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlardan tashqari barcha davlat xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi.

“ MUROJAATLARNING ASOSIY QISMINI MEHNAT MUNOSABATLARI, IJTIMOIY HIMOYA, UY-JOYGA BO'LGAN HUQUQLAR, TA'LIM VA NAFQALAR OLIISH KABILAR TASHKIL ETGAN. BOSHQARMA TOMONIDAN AHOLI MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQISHDA, BIRINCHI NAVBATDA, FUQAROLARNING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMOYA QILISHGA, ULARGA HUQUQIY YORDAM BERISHGA E'TIBOR BERILMOQDA. ZERO, INSON UCHUN UNING HUQUQI VA QONUNIY MANFAATLARIDAN MUHIM QADRIYAT YO'Q.

"SNICKERS" tovar belgisidan "Victoria Tag" mas'uliyati cheklangan jamiyati no-qonuniy foydalanib kelayotgani bo'yicha yo'llagan murojaati o'rganib chiqildi. Natijada huquqbuzar "Victoria Tag" MCHJga taqdimnoma kiritilib, ushbu tovar belgisidan foydalanish holati bartaraf etildi.

Olti oyda 758 mingdan ziyod davlat xizmati ko'rsatildi

Viloyatda joriy yilning o'tgan olti oyida 22 ta tuman va shahar Davlat xizmatlari markazi orqali aholiga 758 mingdan ortiq xizmat ko'rsatildi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslardan Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali — my.gov.uz orqali 248 ming 474 ta ariza kelib tushdi. Ularning 67 ming 614 tasi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga joylashtirish, 44 ming 309 tasi kadastr pasporti, 39 ming 380 tasi narkologiya bo'yicha dispanser hisobida turishi yoki tamsiligi to'g'risida, 14 ming 640 tasi pensiya (nafaqa) haqida ma'lumotnoma olish, 36 ming 746 tasi ko'chmas mulk obyektlari-

tizimi muammolar va qonun buzilishlari aniqlandi. Xususan, joriy yilning o'tgan olti oyida vakolatli organlar davlat xizmatlari ko'rsatishda 8 mingdan ortiq qonun-



Baraka topishsin!

Bunday qulaylik va imkoniyatlar odamlar chehralariga ko'chganek go'yo. Bu xushnudlik ko'zlardan ko'zlarga, so'zlardan so'zlarga o'tayotir. Keling, bu borada fuqarolar fikrlarini ham bir eshitib ko'raylik:

— Aholi uchun hozirgiday yaratilayotgan qulaylikni ilgari kuzatmaganman, — deydi Chirchiq shahri "Shodlik" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nishonboy Qurbonov. — Mahallamiz shahardan 18 chaqirim uzoqda joylashgan. Olis va chekka hududda yashovchi fuqarolarga yengillik yaratish, vaqtini tejash maqsadida Davlat xizmatlari markazi tomonidan tez-tez sayyor xizmatlar ko'rsatiladi. Bir galgi uchrashuvda markaz xodimlari tomonidan fuqarolarimizga subsidiya olish tartibi, pensiyaga chiqish, mobil-ID, kadastr hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish, bolalarni davlat maktabgacha ta'lim muassasasiga joylashtirish bo'yicha huquqiy tushunchalar berdi. Mahallamizdagi 7 fuqaroga shu yerda davlat xizmatlari ko'rsatildi.

— "Bo'ston" mahalla fuqarolar yig'inida 16 mingga yaqin aholi yashaydi, — deydi yosh fermer Dilmurod Asqarov. — Tuman markazidan 15 chaqirim olisda joylashgan mahalla ahlining davlat xizmatlaridan foydalanish uchun markazga borib kelishi qiyin edi. Mahalla fuqarolar yig'ini binosida aholiga qulay shart-sharoitlar yaratish hamda davlat xizmatlarini ko'rsatish

maqsadida tuman Davlat xizmatlari markazining filiali ochildi. Yaqinda auktsion orqali yer yutib olgan edim. Yerimni dehqon xo'jaligi sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun Davlat xizmatlari markazining Bo'ston filialiga murojaat qildim. Markaz xodimlari bir zumda davlat ro'yxatidan o'tkazib berdi. Elektron raqamli imzo kiritilgan ham oldim. Faoliyatimni qonuniy olib borishga imkoniyat yaratildi.

— Yoshim 80 ga yaqinlashib qoldi, ikkinchi guruh nogironiman, — deydi Jumanazar ota Xudoyberdiyev. — O'zim mustaqil yura olmayman. Bekobod tumani Ulug'bek qo'rg'onidagi Ilg'or mahallasida yashayman. Yashab turgan uyimning hujjatlari ancha oldin yo'qolgandi. Salomatligim sababli Davlat xizmatlari markaziga borolmayotgan edim. Markaz xodimlari o'zlari kelib, shu yerda xizmat ko'rsatdi. Arxivdan so'rov asosida uyimning kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun tuman hokimining qarorini tiklashga ariza berdim. Tez fursatda ishim bitadigan bo'ldi. Baraka topishsin.

Bir qarashda juda oddiy, sodda jumalalar. Ammo shu ikki so'z zamirida bugungi islohotlardan shukronalik tuyg'usi mujassam. "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasining odamlar hayotida aks etayotgani, har bir fuqaroga uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilima tashkil etilgan, davlat xizmatlaridan foydalanish uchun barcha sharoit yaratilayotganidan minnatdorlik bor bu so'zlarda.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI

yangi maqsadlar va marralarni ko‘zlaydi



INSON QADRI UCHUN

Boshlanishi 1-betda

Strategiyada besh yo‘nalish — har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish, barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat

boshqaruvini tashkil etish hamda mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish bo‘yicha 100 ta maqsad o‘rin olgan.

E‘tiborlisi, bu maqsadlarning har biri “Xalq xizmatidagi davlat” tamoyili asosida fuqarolarning bugungi hayotini yanada yaxshilash uchun yo‘naltirilishi ko‘zda tutilgan.

MUHIM TASHABBUSLAR IN‘IKOSI



Shoxruh TILLABOYEV,
Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi, “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiati, ekspert:

— Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi xalq va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat usullaridan biridir. Chunki qonun loyihalari muhokamasi jarayonida qatnashish fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Hozirgi vaqtda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jamoatchilik muhokamasi instituti keng tarqalmoqda. Jumladan, Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi loyihalari ham elektron tarmoqlar orqali jamoatchilik muhokamasiga qo‘yildi.

Ushbu hujjatlar loyihalarining to‘liq versiyasi regulation.gov.uz va 2030.strategy.uz portalida e‘lon qilindi. Farmon loyihasida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash, uning jirosini tashkil etish va monitoring qilish masalalari o‘z aksini topgan. Qaror loyihasida esa strategiyani 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar hamda 2024-yilga mo‘ljallangan vazifalar aks etgan. Bunda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi maqsadlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari soddada hamda qulay shaklda ifodalangani bilan ahamiyatidir.

“STRATEGIYA LOYIHASIDA ILGARI SURILGAN MUHIM TASHABBUSLARDAN YANA BIRIGA ALOHIDA TO‘XTALISH JOIZ. BU — MILLIY KINEMATOGRAFIYANI RIVOJLANTIRISH. BU BORADA MUHAMMAD XORAZMIY, BERUNIY, IBN SINO, AMIR TEMUR, MIRZO ULUG‘BEK, ALISHER NAVOIY, BOBUR MIRZO HAQIDA DUNYO KINO BOZORLARIDA RAQOBAT QILA OLADIGAN YANGI BADIY FILMLAR YARATISH MAQSADLARI O‘Z AKSINI TOPGAN.

Mazkur strategiya loyihasida ta‘lim tizimi islohotlariga ham alohida o‘rin berilgan. Bu — bejiz emas. Chunki ta‘limni rivojlantirishdan turib, yuksak taraqqiy etgan jamiyat barpo etish mushkul. Shu bois, hujjat loyihasida mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan ta‘lim islohotlarini tizimli asosda davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarish ko‘zda tutilgan. Jumladan, pedagoglar malakasini oshirish imkoniyatini kengaytirish va ularning moddiy turmush sharoitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari belgilangan.

Strategiya loyihasida “El-yurt umidi” jamg‘armasi ko‘magida Maktabgacha va maktab ta‘limi va ziriqli tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlarni chet mamlakatlarga malaka oshirish va stajirov-kaga yuborish rejasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Bu pedagoglarimiz uchun katta imkoniyat bo‘lib, ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini amaliyotda qo‘llashga keng yo‘l ochadi.

Oliy ta‘lim bilan bog‘liq ishlar alohida e‘tiborga ega. Strategiya loyihasida oliy ta‘lim qamrovini yanada kengaytirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish maqsadlari nazarda tutilgan. Hozirgi kunda OTMlarning asosiy maqsadlaridan biri malakali kadrlar tayyorlash

va dunyoning nufuzli universitetlari bilan hamkorlik o‘rnatishdir. Shundan kelib chiqib, xorijiy ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishni ham joriy etish dasturi kiritilmoqda.

Quvonarli yana bir jihati shundaki, mamlakatimiz OTMlari keyingi yillarda sezilarli natijalarga erishmoqda. Yaqinda Buyuk Britaniyaning nufuzli reyting tashkiloti “Times Higher Education” agentligi tomonidan e‘lon qilingan “The Impact Rankings” reytingida mamlakatimizdagi 47 ta oliy ta‘lim muassasasi qayd etilgan buning isbotidir. Jumladan, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent davlat yuridik universiteti nufuzli o‘rinlarni egalladi.

Alohida ta‘kidlash joizki, Toshkent davlat yuridik universiteti “Times Higher Education” tomonidan “Young University Rankings” reytingida tan olindi. Ushbu maqom tufayli TDYU nufuzli reytinglarga kirish uchun nomzod maqomiga ega bo‘ldi.

Bundan tashqari, strategiya loyihasiga asosan, har yili 5 ming professor-o‘qituvchini tajriba almashish uchun xorijiy ilmiy tashkilotlarga yuborish ko‘zda tutilgan. Ushbu dastur professor-o‘qituvchilarning chet eldagi ilmiy institutlar bilan akademik almashinuvi uchun katta imkoniyatdir.

Investitsiya yo‘nalishi bo‘yicha ham katta maralar ko‘zlanmoqda. Xususan, iqtisodiyotga 250 milliard dollarlik yangi investitsiyalar, jumladan, 110 milliard dollar xorijdan, yana 40 milliard dollarlik mablag‘ davlat-xususiy sheriklik dasturlari orqali jalb etilishi ko‘zda tutilgan.

Bundan buyon har bir tumanning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish maqsadida reyting joriy etiladi. 150 milliard dollarlik 500 dan ortiq strategik texnologik va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Yirik loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etayotgan o‘rta biznes subyektlariga 5 milliard dollar miqdorida kreditlar ajratiladi.

Qishloq xo‘jaligi sanoatini rivojlantirish ham muhim vazifa etib belgilangan. Jumladan, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash 25 foizdan yuqori darajaga ko‘tariladi. O‘zbekistonda 2,5 million tonna sig‘imga ega 100 ta agrologistik markazi quriladi. 300 ming gektar intensiv bog‘ va uzumzor suvni tejaydigan texnologiyalar bilan ta‘minlanadi, shuningdek, tarmoq xodimlari uchun 10 foizli imtiyozli kreditlar ajratiladi. Pilla-chilikni rivojlantirish maqsadida tut plantatsiyalariga yana 105 ming gektar yer ajratiladi. Paxta hosildorligi gektariga 45-50 sentnerga, g‘alla hosildorligi 80-85 sentnerga yetkaziladi.

Strategiya loyihasida ilgari surilgan muhim tashabbuslardan yana biriga alohida to‘xtalish joiz. Bu — milliy kinematografiyani rivojlantirish. Bu borada Muhammad Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo haqida dunyo kino bozorlarida raqobat qila oladigan yangi badiiy filmlar yaratish maqsadlari o‘z aksini topgan. Buyuk ajdodlarimizga bag‘ishlangan yuqori sifatli filmlar suratga olinishi o‘zbek madaniyatini butun dunyoga yanada kengroq ochib berish imkonini beradi.

Milliy kinematografiyani rivojlantirish uchun milliy filmlarning nufuzli xalqaro kinofestivallarda ishtirokini ta‘minlash hamda eng ommabop internet platformalariga joylashtirib borish nazarda tutilgan. “Netflix”, “Amazon”, “Disney” kabi eng ommabop 10 ta internet platformasining filmlarga texnologik talablarini o‘rganish hamda moslashtirish maqsadi yoshlar va kino ixlosmandlari uchun eng yaxshi xabar bo‘ldi. Ushbu platformalar orqali xalqimiz sifatli va asl dublyajda filmlar tomosha qilishi mumkin bo‘ladi. Ta‘kidlash joizki, ushbu platformalar mualliflik huquqining yuqori himoyasiga ega, bu esa odamlarni sifatsiz filmlar tomosha qilishdan ogohlantirish imkonini beradi.



ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGINI TA‘MINLASHDA DOLZARB VAZIFALAR BELGILANMOQDA



Shavkat FAYZULLAYEV,
Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani IIB xodimi, tadqiqotchi ekspert:

— “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha dolzarb maqsad va vazifalar bajarilishi ta‘minlanadi.

Bunda bosh maqsad e‘tiborlidir. Prezident farmoni loyihasida ta‘kidlanganidek, xalqimizning erkin va farovon, qudratli yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohishi-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma‘naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatlari ta‘minlash “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining asosiy maqsadi sifatida belgilanmoqda.

Strategiya loyihasi bilan tanishar ekanman, hujjatning to‘rtinchi yo‘nalishi — **qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish maqsadlariga e‘tibor qaratdim.**

Prezidentimiz shu yil 28-iyul kuni Farg‘ona shahrida hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida **“Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug‘lashni eng oliy qadriyat sifatida e‘tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O‘zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo‘ydik. Yagona maqsadimiz — adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlash orqali xalqimizni rozi qilish”**, dedi.

Mana shu maqsadlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham o‘z aksini topayotgani e‘tiborlidir. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, strategiyaning bosh maqsadlaridan

biri — **adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatlari ta‘minlash** hisoblanadi. Jumladan, strategiya loyihasining to‘rtinchi yo‘nalishi 87-maqsadi aynan huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatini xalq manfaatlariga, qadr-qimmatiga va huquqlarini himoya qilishga bag‘ishlangan. Unga ko‘ra, yagona elektron reyestr yaratish orqali jinoyat ishi qo‘zg‘atilishidan tortib, ish yuzasidan hukm chiqarilguniga qadar bo‘lgan jarayonni individual raqam va QR kodi orqali kuzatib borish imkoniyatini joriy qilish, dalillarni to‘plash va mustahkamlash faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va so‘nggi ilmiy yutuqlar yordamida to‘liq raqamlashtirish borasidagi vazifalar belgilangan.

Bu vazifa va maqsadlarning ahamiyati nimalarda ko‘zga tashlanadi? Qayd etish joizki, XXI asrga axborot texnologiyalari asri sifatida qaralmoqda. Shu sababli, jamiyat faoliyatining turli sohalariga innovatsion texnologiyalar shiddat bilan kirib kelmoqda.

Agar raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, joriy yilning dastlabki 5 oyida O‘zbekistonda 17 ming 271 jinoyat qayd etilgan. Bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5100 taga ko‘p. Bu esa o‘z-o‘zidan qo‘shimcha tergov qilinadigan ishlar sur‘ati oshganiga dalolat beradi. Ushbu ish yuklamasini yengillashtirish esa sohada ilg‘or raqamli texnologiyalardan foydalanishga bo‘lgan talabni oshiradi.

Ayni talab, odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlarda ham o‘z dolzarbligiga ega. Dunyodagi transmilliy jinoyatlarning eng xavfli va ayanchilisi odam savdosi, afsuski, bizning davrda ham ko‘payib bormoqda. Mehnat migratsiyasi, axborot almashinuvining kuchayishi odam savdosi bilan shug‘ullanadigan jinoyatchi guruhlariga o‘z qabih niyatlarini amalga oshirishga imkon yaratib berayotgani ham sir emas.

BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda 2,7 million kishi, jumladan, 600-800 ming atrofida ayollar va bolalar odam savdosi qurboni bo‘lmoqda. Ushbu jinoyat tufayli dunyo bo‘yicha yiliga 7 milliard AQSH dollari atrofida pul noqonuniy aylanadi. Mazkur statistika tergov organlari oldiga har bir holatda adolatni qaror toptirish vazifasini qo‘yadi.

Telekommunikatsiya va elektrotexnika sohasidagi zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanishi ayrim jinoyatchilar tomonidan ko‘plab jinoyi harakatlarni sodir etish natijasida katta foyda olish imkonini berayotganini kundalik hayotimizda kuzatib turibmiz. Lekin ba‘zi hollarda ularni jinoyi javobgarlikka tortish uchun yetarli dalillarni o‘z vaqtida to‘plash imkoni bo‘lmaydi. Shu sababli, bu jarayonga ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur.

Transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyoti nafaqat unga qarshi kurash vositalari va usullarini takomillashtirishni, balki jinoyat ishlarini tergov qilish bo‘yicha yangi

protsessual mexanizmlar yaratishni ham talab qilmoqda.

Surishtiruv, tergov va sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda jinoyat ishlarida isbotlash vositalari va usullari tizimida yangi texnik vositalar muvaffaqiyatli qo‘llanilyapti.

Huquqni muhofaza qilish organlari jinoyat ishi yuzasidan barcha isbotlash yo‘llari va dalillarni tezkor va aniq qayd etishga imkon beradigan audio, video yozuvlar hamda boshqa texnik vositalardan foydalanishda katta tajriba to‘plagan. Bugungi kunda jinoyatlarni tezkor va qisqa muddatda tergov qilish, jazo muqarrarligini ta‘minlashda bir qancha innovatsion texnologiyalardan foydalanib kelinmoqda.

Ma‘lumki, odam savdosi bilan bog‘liq jinoyatlar asosan chet elga mo‘maygina daromad topish va dasi bilan boshlanadi va xorijiy davlatda faoliyat olib borish haqida so‘z yuritiladi. Tergov amaliyotida ushbu turdagi jinoyatlarni tergov qilish vaqtida xorijiy davlat fuqarolarining ham ko‘rsatuvlarini olishga to‘g‘ri keladi. Bu esa ko‘p vaqt sarfiga va isbotlash subyekti oldida katta muammolarni vujudga keltiradi.

Agar biz “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida sohada doir ko‘zda tutilayotgan maqsadlarni to‘laqonli amalga oshirishni istasak, quyidagi usullarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, barcha tergov harakatlari video-konferensaloqa rejimida o‘tkazish kerak. Bu jinoyatni tergov qilishda va sud jarayonida jinoyat protsessi vaqtini kamaytiradi. Mamlakatimizning istalgan manzilda yashovchi guvoh, jabrlanuvchi va boshqa protsess ishtirokchilari bilan bog‘liq tergov harakatlari olib borish, tomonlarning barcha ishtirokchilarini to‘liq so‘roq qilish, taqdim etilgan dalillarni o‘rganish imkonini beradi. Yana bir muhim jihati: ma‘lumki, jinoyat protsessida o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lgan gumonlanuvchilar bilan birga, jabrlanuvchiga nisbatan adovat bilan qarovchi jinoyat sodir etgan shaxslar ham kuzatiladi. Shunday vaziyatlarda yuzlashtirish tergov harakatlari vaqtida masofaviy tergov harakatining ahamiyati katta. Shuningdek, tergov harakatlari videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish zarur byudjet mablag‘larini tejashga xizmat qiladi.

Ha, zamon shiddat bilan rivojlanmoqda. Shunga mos ravishda jinoyat sodir etilish usullari ham o‘zgarmog‘da. Shunday ekan, jinoyatchilar aybini isbotlash jarayoni ham zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish borishi zarur bo‘ladi.

Xulosa o‘rinda ta‘kidlash lozimki, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi loyihasida inson huquqlarini, adolatni ta‘minlashga doir barcha maqsadlar jamiyatimizda inson qadrini yuksaltirish tamoyillarini amaliyotga keng targ‘ib qilishni ko‘zlayotgani bilan ahamiyatidir.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI

DASTURXONIMIZ

Nosirjon YUSUPOV,
Nurmuhammad
BAXTIYOROV,
Markaziy Osiyo xalqaro
instituti ilmiy xodimlari

TO'KIN,

rizqimiz butun

Boshlanishi 1-betda

Chunki hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari, ayniqsa, Afrika davlatlarining ayrimlarida oziq-ovqat tanqisligi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, o'z ehtiyojidan ortiq don yetishtira oladigan mamlakatlarni muhtoj davlatlarga sotish, balki tekis yetkazib berish imkoniyatidan ham mahrum bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan va qashshoq mamlakatlarda oziq-ovqat inqirozidan ko'proq zarar ko'lmoqda. Iqtisodiyot rivojlangan mamlakatlarda inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun ko'plab vositalar mavjud. Shu sababli, ularda oziq-ovqat mahsulotlari inflyatsiyasi dunyoning boshqa mamlakatlarga nisbatan 2-2,5 barobar past natija ko'rsatmoqda.

Davlatlar o'rtasidagi keskinlashgan siyosiy qaralama-qarshilik atrof-muhit va iqlim muammolariga e'tibor susayishiga olib keldi. Bunga javoban tabiat insoniyat va butun sayyora manfaatlariga qattiq zarba berib, o'zining halokati kuchini tobora ko'proq namoyon qila boshladi. Oxirgi yillar bunga yaqqol misol.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib, shuni aytish mumkin, oziq-ovqat inqirozining idizlari ishlab chiqarish tarmog'idan emas, balki inson faoliyatining boshqa sohalaridan, asosan, siyosiy sohadan chiqib kelmoqda.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatyaptiki, har bir mamlakat ushbu muammolarni yechishda o'z imkoniyatlariga tayangan holda, ta-fakkuridan kelib chiqib harakat qilishi kerak. O'zbekiston jahon iqtisodiyotining bir qismi, binobarin, dunyoda kechayotgan oziq-ovqat inqirozi kabi jarayonlar uni chet-lab o'tmaydi, unga ham albatta, o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

To'g'ri, so'nggi yillarda aholini asosiy ehtiyoj mollarini ta'minlashda uzilishlar kuzatilmadi, biroq inflyatsiya odamlarning turmush darajasi, xarid qobiliyatiga ta'sir ko'rsatib qolmoqda.

So'nggi yillarda agrar sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar, bozor tamoyillarining joriy etilishi mamlakatimizda oziq-ovqat mah-

sulotlarini ishlab chiqarish bilan bog'liq vaziyatni yaxshilash, import mahsulotlariga qar-ramlikni nisbatan kamaytirish imkonini berdi.

G'allachilik O'zbekistonda qishloq xo'jaligining izchil rivojlanayotgan tarmog'iga aylandi. Kartoshkachilik, sabzavotlar yetishtirish, chorvachilik sezilarli rivojlanmoqda. O'tgan yili aholi jon boshiga tuxum yetishtirish sanitarিয়া me'yorlaridan oshib, 225 donani tashkil etdi. Kelgusi yillarda esa respublikada tovuq go'shti ishlab chiqarish ko'rsatkichlari tavsiya etilgan norma darajasiga ko'tarilishi kutilmoqda. Ortiqcha ish-lab chiqarilgan qismi esa eksportga chiqariladi. So'nggi besh yilda O'zbekistonning oziq-ovqat savatidagi eng zaif o'rinni egallagan baliq yetishtirish ko'rsatkichi uch barobar oshdi.

Oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini hal qilish nafaqat mahalliy ishlab chiqarish, balki import bilan ham bog'liq. Jahon oziq-ovqat inqirozi ta'sirini cheklash uchun mamlakatimiz jahon savdo tashkiloti tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlardan ham foydalanmoqda. Mamlakat rahbariyati mintaqada birinchilardan bo'lib oziq-ovqat importini kengaytirish, bo'xona to'siqlarini kamaytirish, inflyatsiyani jilovlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish choralarini ko'rdi.

O'zbekistonning ushbu muammolarni hal etishdagi muvaffaqiyatlari jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Britaniyaning "The Economist" agentligining yillik reytingiga ko'ra, mamlakatimiz 2019-2022-yillarda oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha eng yuqori o'sish sur'atlariga ega 10 ta davlat orasida 1-o'rinni egalladi.

Oxirgi 11 yil davomida ushbu agentlik har yili 113 mamlakat ko'rsatkichlarini o'z ichiga



olgan Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksini (GFSI) chop qilib kelmoqda. Tadaqiqot mualliflari moddiy qulaylik, arzonlik, barqaror rivojlanish kabi toifalar samaradorligini umumlashtiruvchi va obyektiv tavsiflarida O'zbekistonning sezilarli natijalarini qayd etmoqda. Natijada o'tgan yil yakunlariga ko'ra, mamlakatimiz 5 pog'onaga ko'tarilib, 73-o'rinni egalladi.

Erishilgan natijalar, albatta, ijobiy. Buni bizga qo'shni bo'lgan, tabiiy sharoitlari bir xil bo'lgan davlatlar bilan solishtirish orqali bilish qiyin emas. Bu kelgusi faoliyat ko'lamini belgilash, kamchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Ushbu ko'rsatkichga ikkita muhim omil ta'sir qiladi. Bu, birinchi navbatda, aholi soni va uning o'sish sur'ati. Ikkinchi omil

esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish imkoniyatlarining mavjudligi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Markaziy Osiyoda ilg'or bo'lib, oziq-ovqat bazasi ham yuqori bo'lgan.

Xalqaro ekspertlar fikricha, O'zbekistonning joriy yilda optimistik natijalarga erishishiga asos bor. Bu ishonch mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga, ko'rilgan chora-tadbirlarga bog'liq. Ammo amalga oshirilayotgan tadbirlar turli xil. Ba'zi birlari islohotlar bir necha yildan keyin, ba'zilari esa qisqa muddat ichida o'z samaradorligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan yaqinda qabul qilingan va amalga oshirilayotgan muhim hujjatga to'xtalib o'tish lozim. Ya'ni bu fermer xo'jaliklari, klasterlarning moddiy

manfaatdorligini oshirish, ichki bozorni bug'doy va un mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, g'allani davlat ehtiyojlari uchun zarur hajmdan ortiq xarid qilishdan voz kechish orqali sohaning investitsiya-yoziqibadorligini oshirish maqsadida qabul qilingan Prezidentimizning 2022-yil 28-maydagi "G'allani yetishtirish va sotishda bozor tamoyilini joriy etishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroridir.

Aytish joizki, ushbu hujjat ichki g'alla bozorini tubdan o'zgartiruvchi eng muhim omil bo'ldi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga asos yaratdi. Jumladan, joriy yilda mamlakatimizda rekord darajadagi g'alla yetishtirildi — 8 million tonna, hosildorlik esa 70 sentnerdan oshdi.

ITIMOIY INFRATUZILMA

Boshlanishi 1-betda

Yurtimizda ham aholining toza ichimlik suv ta'minotini, suvdan foydalanish xizmatini yanada yaxshilash borasida qator ishlar amalga oshirilyapti. Prezidentimizning 2022-yil 24-maydagi "Aholining ichimlik suv ta'minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida bu borada qilingan lozim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan.

"Navoiysuvta'minot" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 7 ta tuman va G'ozg'on shahrida filiallari bo'lib, ular tomonidan Navoiy viloyati aholisiga ichimlik suv va oqova suv tizimlari bo'yicha xizmat ko'rsatib kelinmoqda. O'tgan yili viloyat bo'yicha 1 million 100 ming aholining 62,2 foizi markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlangan bo'lsa, "Obod qishloq", "Obod mahalla" va boshqa investitsiya dasturlari ijrosi tufayli 332 kilometr ichimlik suv tarmog'i tortildi va buning uchun 57 milliard so'm mablag' yo'naltirildi.

— Ushbu mablag' evaziga 45 ming aholi birinchi marta toza ichimlik suv bilan ta'minlandi, 16 mingdan ziyod aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi. Barcha dasturlar asosida 18 ta suv inshooti qayta ta'mirlandi. Joriy yilda 1000 kilometr ga yaqin ichimlik suv tarmog'i tortish rejalashtirilgan bo'lib, unga 200 milliard so'mdan ziyod mablag' sarflanadi. Shu yilning yakunida viloyatimizda aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasini 85 foizga yetkazish rejalashtirilgan, — deydi "Navoiysuvta'minot" MCHJ direktori o'rinbosari Odil Halimov.

Hududlar kesimida tahlil etadigan bo'lsa, Karmana tumanida jami 604,2 kilometr ichimlik suv tarmog'i, 31 ta ichimlik suv inshooti mavjud. Joriy yil boshida aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi 98,9 foizga yetkazildi.

Tumanda 18 ming aholi muqobil ichimlik suv manbalaridan foydalanib keladi. 2023-yilning o'tgan davrida ham tuman

aholisini markazlashgan obihayot bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Do'stlik mahallasi hududidagi "Yangi O'zbekiston" massivida qurilayotgan ko'p qavatli uylar uchun 3,6 kilometr ichimlik, 2,5 kilometr oqova suv tarmoqlari tortilib, 2 ta oqova suv inshooti qurildi. Ayni vaqtda ham tuman aholisini toza ichimlik suv bilan ta'minlash bo'yicha amaliy ishlar davom etmoqda.

— "Cho'tqara" massivida ichimlik suv ta'minotini yaxshilash uchun 3,2 kilometrlik yangi tarmoq tortildi. Yangi hayot mahallasi hududiga esa 12,2 kilometrlik ichimlik suv quvurlarini tortish ishlari boshlandi. Bundan tashqari, bir qator mahallalarda quvurlarni ta'mirlash hamda almashtirish ishlari olib borildi, — deydi "Navoiysuvta'minot" MCHJ Karmana tumani filiali xodimi Sevdiyor To'xtayev.

Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 18-martdagi "Fransiya taraqqiyot agentligi ishtirokida "Navoiy viloyati Karmana tumanida oqova suv tizimlarini qurish" hamda "Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahri va Kitob tumani markazida oqova suv tizimlarini rekonstruksiya qilish va qurish" loyihalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham bir qator vazifalar belgilab berilgan. Unga muvofiq, Karmanada qiymati 30,79 million yevroga teng loyiha ishlariga start beriladi.

Ushbu loyiha doirasida 2022-yil davomida barcha tashkiliy masalalar hal etilib, qarz mablag'larini qayta kreditlash bitimi imzolangan. Shu asosda Karmana tumanida 117,2 kilometr iborat oqova suv tizimi, 21,3 kilometr bosimli kollektorlar, 12 ta nasos stansiyasi hamda bir kecha kuzudza 9 800 kub metr oqova suvni tozalaydigan bitta tozalash inshooti qurildi.



Navbahor tumanida ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlar salmoqli. Hududdagi ko'plab mahallalar aholisi shu kunga qadar qo'lbo'lma usulda o'rnatilgan "kachalka"lar orqali suv ichib kelardi. Yaratilgan imkoniyatlar va islohotlar samarasi tufayli bu manzillarga ham yangi tarmoqlar tortilib, aholi toza ichimlik suvdan bahramand bo'lmoqda. Jumladan, Dul-dul, Xashman mahallalarida istiqomat qiluvchi mingdan ziyod xonadonga toza obihayot kirib bordi.

Albatta, fuqarolarni markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami yildan-yilga kengaymoqda. Bunday imkoniyat yangi, obod manzillardagi farovon hayot kafolati bo'layotgani aholining bugungi kayfiyatidan, mamnunligidan ham sezilib turibdi.

E'tirof etish joizki, ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar natijasida viloyatning olis hududlaridagi aholi ham ilk bora

toza ichimlik suv bilan ta'minlanmoqda. Jumladan, Qiziltepa tumanidagi "G'amxo'r" MFY aholisini markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlash maqsadida 8,6 milliard so'm mablag' evaziga hududga yangi tarmoq tortish ishlari boshlab yuborilgan. Buning natijasida 1,5 ming nafar aholi ilk bor toza ichimlik suv bilan ta'minlanadi va 4 mingdan ziyod aholining suv ta'minoti yanada yaxshilanadi.

"Malikobod" MFY aholisi ham bugungi kunda suvsuzlar mehnatidan mamnun. Dastur doirasida 18 kilometr ga yaqin suv quvurlari tortilib, 1 ta suv inshooti ta'mirlandi va 600 ga yaqin oilaning suv ta'minoti yaxshilandi.

— Aholi uchun yaratilayotgan sharoitlardan juda mamnunmiz. Sababi, o'ttiz besh yildan buyon ichimlik suvni zaxira qilib, uch-to'rt oy iste'mol qilardik. Bu orada uning sifati ham buzilardi. Endilikda toza, sifatlil suv xonadonimizgacha kirib keldi. Suv keltirgan

elda aziz bo'lib kelgan. Lekin uning qadriga yetishimiz, o'z navbatida, tejashimiz ham kerak, — deydi mahalla faoli, mehnat faxriysi Ahror Shomurodov.

Ha, uzoq yillardan keyin ilk bor ichimlik suv tarmog'i kelgan mahalla aholisining quvonchini his qilish mumkin. Ular o'z o'mida bu ne'matning qadriga yetadi va kelajak avlodga ham bu borada o'mak bo'lishga hech shubha yo'q.

Fikrimizni Xatirchi tumani misolida davom ettiradigan bo'lsak, 2017-2023-yillarda 26 mahallaga 348,1 kilometr ichimlik suv quvurlari yangidan yotqizildi. Jumladan, Tasmachi mahallasida 1 ta yangi suv inshooti qurilib, 1 ta suv inshooti to'liq ta'mirlandi. Bu 4 mingdan ziyod aholi uchun haqiqiy shodiyonaga aylandi. Bundan tashqari, "Zarbdor", "Qoracha" va "Changir", "Polvonota", "Yangirabod" MFYlariga ham yangi tarmoq tortildi. Joriy yilda esa Qo'rg'oncha mahallasiga ham ichimlik suv quvuri yotqizilib, ikki yarim mingga yaqin aholi toza suvdan bahramand bo'ldi.

Mutaxassislar ta'kidlashicha, ona sayyoramizda aholining qirg' foizga yaqini suv tanqisligidan aziyat chekmoqda, beshdan bir qismi esa zarur infratuzilma mavjud emasligi tufayli ichimlik suv ta'minoti muammolari bilan yashamoqda.

Albatta, yurtimizda olis hududlar aholisi uchun ham yangi ichimlik suv tarmoqlari tortilib, ularning bu ne'matga bo'lgan ehtiyoji qanoatlantirayotgani, turmush sharoiti yanada yaxshilanayotgani e'tirofga loyiq. Vaholanki, Navoiy hududi jihatdan eng katta viloyat hisoblanadi. O'lis hududlar, suv tarmog'i yetib bormagan aholi punktlari oz emas. Ushbu hududlarga ham suv tarmog'ini tortish ishlari qizg'in davom etmoqda.

Joriy yilda viloyatda 430 kilometr dan ziyod yangi ichimlik suv quvurlari yotqizilishi natijasida 48 ta mahalladagi 56 mingdan ziyod aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanishi rejalashtirilgan. Yil yakuniga qadar viloyat aholisining toza obihayot bilan ta'minlanganlik darajasi 76 foizdan 83 foizga yetkazilishi ko'zda tutilgan. Bu, o'z navbatida, aholi salomatligi va ularga munosib turmush sharoiti yaratishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



O'ZBEKISTONLIK HAMSHIRALAR

Germaniyada o'z o'rnini qanday topayotir?

Sarlavhaga olib chiqilgan bu savolning javobini maqola avvalidayoq aytib qo'ya qolaylik: xorijda mehnat qilish istagida bo'lgan yurtdoshlarimiz davlat himoyasiga olingan. Shu bois, ular o'zga yurtlarda o'z o'rnini topishda ko'p ham qiyinmayapti. Maqolamizni ikki qismga bo'ldik. Dastlab, mamlakatimizda

keyingi yillarda tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq ijiboy o'zgarishlar va xorijda ishlash istagidagi fuqarolarimizga yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar haqida qisqacha bayon qilsak, ikkinchi qismda esa mana shu islohotlar tufayli Germaniyaga ishlash uchun ketgan o'zbekistonlik hamshiralarning bugungi faoliyati haqida so'z boradi.

Imtiyoz epkinlari

Inson o'zi tug'ilib o'sgan elda baxtiyor yashashni, bir kasbning etigidan tutishni, shu orqali oilasiga, el-u yurtiga naf keltirishni istaydi. Ayrim yurtdoshlarimiz borki, ular oilasidan, vatanidan olisda tahsil olmoqda, mehnat qilmoqda.

Bugun xorijda o'qish yoki ishlash avvalgidek xavotirli bo'lmay qoldi. Chunki chet eldagi vatandoshlarimiz, vaqtin-

cha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarimiz davlatimiz himoyasiga o'tdi. Ularning oila a'zolariga

ham alohida e'tibor qarutila boshlandi. Prezidentimiz tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, xorijda ishlamoqchi bo'lgan shaxslarni talab yuqori kasblarga o'qitish, fuqarolarning chet elda bo'lish davrida huquqlarini himoya

qilish, qaytib kelgan mehnat migrantlari bandligini ta'minlash, oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2020-yil 15-sentabrda "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorni imzoladi. Qaror muqaddimada

ta'kidlanganidek, keyingi yillarda xorijda ishlayotgan fuqarolarga nisbatan munosabat tubdan o'zgarib, mehnat migrantlari bilan samarali muloqot o'rnatildi, ularning muammo va ehtiyojlarini o'rganish hamda hal qilish bo'yicha yangi tizim joriy qilindi.

Shunday ekan, Prezident qarorida bu boradagi munosabatlarni yanada yaxshilash maqsadida qanday chora-tadbirlar belgilandi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Avvalo, mazkur qaror bilan zamon talablari asosida qator muhim asosiy yo'nalishlar belgilandi.

Mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlik rivojlantirilishi, xorijdagi vatandoshlar tashkilotlari va o'zbek diasporalari bilan aloqa mustahkamlanishi bo'yicha vazifa qo'yildi. Xorijga ishlashga ketishdan

oldin fuqarolarni kasb-hunarga va xorijiy tillarga o'qitish, ularga kasbiy malakani tasdiqlovchi xalqaro sertifikatlar berish masalasi e'tiborga olindi. Mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash, xorijdan qaytib kelganidan keyin bandligini ta'minlash masalalari ham chetda qolmadi.

Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyati yuritayotgan fuqarolarimizning bugungi va kelajak hayoti uchun mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda migrantlar huquqi mustahkamlandi. Davlatimiz o'z hududida ham, uning tashqarisida ham fuqarolarini himoya qilishi va homiylik ko'rsatishi Konstitutsiya darajasida kafolatladi.

Endi xorijda ishlash istagini bildirgan yurtdoshlarimizdan alohida tayyorgarlik talab etilayotir. Kasb malakasidan tashqari, borayotgan mamlakati tilini ham puxta o'rganish ularning o'ziga ishonchini oshiradi. Turli dasturlardan muvaffaqiyatli o'tib, til o'rganib, xorijga yo'l olgan, faoliyat yuritayotgan fuqarolarimiz davlatimiz himoyasidan mamnun. Ana shunday dasturlardan biri Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hamda Shveysariyaning "GLOBOGATE Concept AG." tashkiloti o'rtasidagi kelishuvga asosan, tajribali tibbiyot xodimlarini Germaniyaga ishga jalb etishdir. Dasturga muvofiq, bugungi kunda 14 nafar yurtdoshimiz Germaniyada faoliyat yuritmoqda.

— Kompaniyamiz O'zbekistonda Germaniyada ishlash uchun turli yo'nalishdagi mutaxassislarni tayyorlash loyihasi amalga oshiruvchi eng yirik tashkilotdir, — deydi "GLOBOGATE Concept AG." mintaqaviy menejeri Leo Duk. — Maqsadimiz tibbiyot muassasalariga kadrlar tayyorlash va yetkazib berishdan iborat. O'quv kurslarimizda Germaniya tarixi va qonunchiligi, shuningdek, milliy urf-odatlari o'rgatiladi.

Bunyodjon YO'LDOSHEV, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligining Germaniya bo'yicha mutaxassisi:



— Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hamda Shveysariyaning "GLOBOGATE Concept AG." tashkiloti o'rtasida 2021-yilda hamkorlik shartnomasi imzolangan. Unga muvofiq, o'zbekistonlik o'rta bo'g'in tibbiyot hamshiralari Germaniya klinika va shifoxonalarda ish bilan ta'minlanadi. Dastlabki tanlov jarayoni 2021-yil oktabr va noyabr oylarida boshlangan. 2022-yil yanvar oyidan nemis tilini o'qitish dasturi yo'lga qo'yildi. Dasturga tanlov jarayonida ish beruvchi klinikalar tomonidan saralab olingan nomzodlar jalb etilgan.

Nomzodlar bir qancha talablar asosida saralanadi. Ya'ni Germaniyada ishlash istagini bildirgan o'rta bo'g'in tibbiyot hamshiralari imtihonga qadar ishdan to'liq ozod etilgan, 39 yoshgacha, tibbiyot kolleji yoki texnikumning uch yillik diplomiga ega, davolash va hamshiralik ishlari yo'nalishida tahsil olgan bo'lishi

talab etiladi. Shu talablarga javob beradigan nomzodlarga 10 oy davomida nemis tili o'rgatiladi. Darslar haftada 5 kun, kuniga 5-6 soat bo'ladi. Nemis tili bo'yicha tajribali o'qituvchi ajratiladi. Bundan tashqari, o'quvchilar mustaqil shug'ullanadi.

Darhaqiqat, xorijda ishlashni maqsad qilgan yurtdoshlarimizning tilni puxta bilishi, kamida muloqot qila olishi juda muhim. O'z kasbining ustasi bo'lsa-yu, suhbatdoshini tushunmasa, tushunsa-yu, fikrini tushuntirib bera olmasa, buning ortidan ko'plab muammolar tug'ilishi mumkin. Ayniqsa, bu tibbiyot sohasi bo'lsa, mas'uliyat yanada ortadi. Imtihon jarayonining murakkabligi ham shunda.

Bugungi kungacha dasturga jalb etilgan o'rta bo'g'in tibbiyot hamshiralardan 14 nafari nemis tilidan B2 daraja sertifikatini qo'lga kiritib, Germaniya klinikalarida faoliyatini boshlab yubordi. B2 darajani olgan yana 16 hamshiraga viza rasmiylashtirildi.

"GLOBOGATE Concept AG." bilan qo'shimcha kelishuvga muvofiq yo'lga qo'yiladigan 10 oylik dastur davomida fuqarolarning xarajatlari O'zbekiston va Germaniya tomonidan to'liq qoplab beriladi. O'zbekiston dasturga qabul qilingan nomzodlar uchun yotoqxona, texnik jihozlar bilan ta'minlangan o'quv xonalari ajratadi. Bundan tashqari, dasturga qabul qilingan hamshiralarning ishida sababli ularning har biriga olti oy mobaynida stipendiya (ishsizlik nafaqasi) beradi. Shveysariya tomoni esa til o'qitish bo'yicha mutaxassislar, o'quv materiallari, keyinchalik hamshiralarni diplom, diplom ilovasi va qo'shimcha hujjatlarning Germaniyada tan olinishini ta'minlaydi. 10-12 oylik dasturni bitirgan hamshiralarni Toshkent shahrida joylashgan Gyote instituti yoki sertifikatlashirish markazlaridagi to'lovlar ularning zimmasida.

Agar hamshira imtihondan birinchi urinishda o'tolmasa, yana uch martagacha imkoniyat taqdim etiladi va xarajatlari qoplab beriladi. B2 daraja olgan hamshiralarning elchixonada hujjat rasmiylashtirishi, vizometriyani ham xalqaro tashkilot zimmasiga oladi. Viza olgan hamshira aviachiptasi, Germaniyaga borishi va aeroportdan belgilangan manzilgacha yetib olishi ham shu tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Ikki bosqichli sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan hamshiralarning mehnat sharoiti nemis hamshiralari bilan bir xil (oylik 2450 yevrodan boshlanadi, nafaqa, sug'urta, ta'il kafolatlantadi).

Astoydil harakat qilganlar nufuzli klinikalarda ishlayotir

Hozirgacha 10 oylik dasturga 600 nafar o'rta bo'g'in hamshirasi jalb etilgan bo'lib, ayni paytda 450 hamshira tahsil olmoqda. Ayrim mutaxassislar oilaviy sharoiti, nemis tilining murakkabligi va boshqa sabablarga ko'ra, dasturni tark etdi.

Dasturga stomatologiya, o'qituvchilik, dorishunoslik, administrator va LOR sohasida shug'ullangan nomzodlar qabul qilinmaydi. Biz ayni paytda Germaniyada faoliyatini boshlagan yurtdoshlarimiz, loyiha ishtirokchilari bilan bog'landik. Ulardan biri — Feruza Egamqulova.

Feruza Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Maktabni bitirib, Yangiyo'l tibbiyot kollejiga o'qishga kirgan. Bolaligidan hamshira bo'lishni orzu qilgan Feruza kollejini a'lo baholar bilan bitirdi. So'ng o'zi tug'ilib o'sgan tumaniga ishga joylashdi. Oqqo'rg'on tumani ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasidagi 14 yillik tajriba uni tobladi. Bemorlar bilan ishlash malakasini shakllantirdi. Dori-darmon bilan davolashdan tashqari bemorlarning ruhiyatiga qarash ham muhim ekanini o'rgandi.

— Muloqot ishimizda birlamchi ko'mak ekanini tuman poliklinikasida anglaganman, — deydi F.Egamqulova. — Bundan tashqari, kasbimga oid kitob va jurnallar o'qishni kanda qilmasdim. Ularda bemor psixologiyasiga oid bilimlarimni oshirib borardim. 2021-yil noyabr oyida "GLOBOGATE" dasturi haqidagi e'lonni o'qib qoldim. Tabiiyki, ko'nglimdan "qaniydi men ham shunday davlatlarga borib ishlasam, tajriba oltirsam", degan o'y kechdi. Biroq bilasiz, o'zbekchilik, oilali ayollarning chetga chiqib ishlashi qo'llab-quvvatlanmaydi.

Turmush o'rtog'imga yangilikni aytсам, ijiboy qabul qildi. Imtihonlardan o'ta olishimga ko'zim yetisa, o'zimni sinab ko'rishim mumkinligini aytdi. Dastlabki sinovdan muvaffaqiyatli o'tgach, menda Germaniyaga ketishga qiziqish ortdi. Nemis tili darslariga ishtiyog bilan qatnadam, mustaqil shug'ullandim. Mehnatlarim zoye ketmadi, shu yil yanvar oyida B2 daraja sertifikatini oldim. Darslarga ikk bor kelganimda, ishonasizmi, nemis tilini umuman bilmasdim. Hatto alifbosini ham.

Shundan so'ng Germaniyaga ketish uchun hujjat ishlari boshlandi. Bu borada Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi yaqindan ko'mak berdi. Agentlik xodimlari hujjatlarni o'zlarini tayyorlab, Germaniyaga ketgunga qadar bu ishlarga bosh-qosh bo'ldi. Hatto bizni kuzatish uchun aeroportga chiqdi. Mart oyida Gutenberg shahriga kelib tushdik. Bu yerda yana ikki oy o'qidi. Tibbiyot darsliklari bilan tanishdik, amaliyot o'tadik. Imtihonlardan so'ng Yevropa mamlakatlarida ham tan olinadigan diplomga ega bo'ldim. Ayni paytda Brandenburg shahrida yashab, ishlayapman.

Bu farzandlarimdan, oilamdan birinchi marta uzoq yashashim. Avval xorijga chiqmaganman. O'ziga yarasha qiyinchiliklar, Vatan sog'inchi bor. Biroq nemis xalqi ham o'zbeklarga o'xshab mehribon va samimiy ekan. Yotoqxona bilan ta'minlanganmiz. Barcha sharoitlar muhayyo. Bu mamlakat hamshiralari bilan teng huquqlimiz, ularga xos imtiyozlardan foydalanamiz. Savollar tug'olsa, integratsion menejerga murojaat qilamiz. Quvonarlisi, biz xorijda ham davlatimiz himoyasida ekanimiz his qilamiz. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan doimiy aloqadamiz.

O'z yo'nalishim bo'yicha xorijda ishlash, tajriba orttirayotganimdan xursandman. Oilam bilan deyarli har kuni gaplashaman. Farzandlarimning ta'limini nazorat qilaman. Farzanda bo'lib qoldi, yangi o'quv yilida katta farzandim 10-sinf, o'rtancham 6-sinf, kichkinam 1-sinfga

boradi. Yaqinda ular ham yonimga, Germaniyaga keladi, buning uchun kerakli hujjatlarni tayyorlayapmiz.

Bir jumla Vatan mehri, sog'inchini sinovdan o'tkazadi

Dunyo ko'rish, farqli madaniyatlar bilan to'qnash kelish, turfa fe'l-atvorli insonlar bilan muloqot qilish hamisha zavqli. Germaniyada faoliyat yuritayotgan yurtdoshlarimiz xorijda ishlash uchun katta imkon ekanini bot-bot ta'kidlaydi.

Zulayho Xudoyberdiyeva ham "GLOBOGATE" dasturi ishtirokchisi. Imtihonlardan namunal ko'rsatkich bilan o'tib, ayni paytda Germaniyadagi "Askipos" klinikasida hamshira bo'lib ishlayotir.



— Asli samarqandlikmiz. G'allaorol tibbiyot bilim yurtida o'qib, 2000-yili Narpat tumani kattalar poliklinikasida ish boshlaganman, — deydi subhatdoshimiz. — Patronaj hamshirasi sifatida shu yerda tajriba to'pladim. Keyinroq oilaviy sharoit tufayli Toshkent viloyatining Angren shahriga ko'chib keldik. Bu yerda shahar reanimatsiya bo'limida hamshira bo'lib 10 yil ishladim. Anesteziologiya bo'yicha malaka oshirdim. Ishim, jamoam yaxshi edi, ular bilan kunda-kunora gaplashib turaman, sog'inaman.

2022-yilda jivanim hamshiralarni Germaniyaga ishga yuborish haqidagi dastur talablarini yubordi. Rezyume to'ldirib, kerakli manzilga jo'natdim. Biroq meni chaqirishlariga ishonchim komil emasdi. Ular menga telefon qilib, subhatga taklif etishganida, juda quvondim. Subhatlardan o'tdim. Toshkent shahrida tashkil etilgan nemis tili kursida o'qiddim. Til o'rganishga ishtiyogim baland edi, 9 oyda sertifikat oldim.

Germaniyaga kelgach, klinikaga ishga joylashdim. Bugun men ham bu yerdagi hamkasblarim qatori Yevropada tan olingan hamshiraman. Bu yo'lni bosib o'tishimga davlatimizdagi imkoniyatlar sabab, deb bilaman. Agentlik xodimlari tushkunlikka tushgan paytlarimiz motivatsiya berdi. Hozirgacha maslahat olish kerak bo'lsa, yordamini ayashmaydi. Batafsil javob berishadi. Ulardan minnatdorman.

Til bilish juda muhim. Nemis hamshiralardan nima talab qilinsa, bizdan ham shu talab

etiladi. Nemis tilida hujjat yurita olamiz. Tushuntirishsa, tushunamiz. Qo'l qo'yish kerak bo'lsa, tushunib qo'l qo'yamiz.

Til bilish himoya ekanini shu yerga kelib angladim. Nemis xalqining bizga munosabati yaxshi. O'z kasbini sevgan inson hamisha ehtiroimga loyiq bo'ladi. Kasbimga muhabbat tufayli bu yerda ham e'tibor qozonyapman. Eng avvalo, ortimda Vatanim turganini chuqur his qilaman. O'zbekistonlik hamshiralarni malakali ekanini dunyo bilishini istayman.

Menda hozir B2 daraja til sertifikatini bor. Bu o'z yo'lga, men tilni yaxshi o'rganish, kundalik muloqotda muammolarga duch kelmaslik uchun ishdan bo'sh vaqtimda tinimsiz til o'rganaman. Juda ko'p muloqot qilaman.

Hozirgi kunda o'zbekistonlik dugonam

fatida shakllantirdi. Yosh bo'lishiga qaramay, ishing ustasi, nemis tilini ham qisqa fursatda o'zlashtirib oldi. U ayni paytda Germaniyaning "Askipos" klinikasida ishlayotir.

— O'tam harbiy sohada ishlaganim bois, turli joylarda yashashimga to'g'ri kelgan. Bir muhitdan boshqa muhitga tez moslashaman, qiyinchiliklarni oson yengaman. Toshkentdagi tibbiyot kollejida tahsil oldim.

Og'ir-bosiq bo'lganman. Doim chetda o'tirib boshqalarni kuzatishni yaxshi ko'radim. Muloqotga kirisha olmaganim.

Bir tanishim Germaniyaga hamshiralarni yuborish haqidagi dasturni aytib qoldi. Ko'rsatilgan pochtaga rezyume yubordim. Maktabda ingliz tilini o'rganaganman. Rus tilida bemalol muloqot qila olaman. Oiladagi muhit tufayli nemis tilini ham bir oz o'rganaganman. Biroq qiyin til bo'lgani tufayli tashlab ketganman. Loyihaga kelgach, maxsus darslardan tashqari YouTube'dan ham mustaqil til o'rgana boshladim. Mazvular qiyinligi uchun qo'shimcha dars qilish talab etiladi. So'zlar yodladim, lug'atimni boyitdim. Bu yerga kelgach, muloqot qilishni o'rgandim.

O'zbekistonda Prezident Administratsiyasi hududidagi Tibbiyot bosh boshqarmasining 2-markaziy konsultativ diagnostika poliklinikasida ishlaganman. U yerda to'plagan tajribam qo'l keldi.

Bu yerda ham sharoit juda yaxshi. Vazifam — keksalarga qarash. O'ziga yarasha qiyinchiliklari ham bo'ladi, lekin ko'pchilik mehribon. Juda yaxshi munosabatda bo'lishadi. Kunim ularning qon bosimi va pulsinu o'lchash bilan boshlanadi. O'z vaqtda dorilarni ichirish, ovqat tarqatish, birgalikda sayr qilish — zavqli.

Oilam O'zbekistonda, ularsiz, tabiiyki, qiynalaman. Onamning ovqatlarini qo'mayman. Boshida bekor keldimmi, deya ko'p o'yladim. Biroq musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmas, deyishadi. Yoshlik aslida — imkoniyat. Asta-sekin ko'nikdim. Bu imkoniyatdan unumli foydalanishga bel bog'ladim. O'z ustimda ishlash, oliy ma'lumot olishni maqsad qilganman. Ortimizda homimizni so'rab turuvchi, qo'llab-quvvatlovchi davlatimiz bor. Bizga ishonch bildirildimi, bu ishonchini oqlashga harakat qilardim.

Biz xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan yurtdoshlarimiz uchun yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar, buning samarasida Germaniyada ish boshlagan o'zbekistonlik hamshiralari va ularga yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida qisqacha to'xtalidik.

Bu boradagi ishlar tizimli davom etadi. Boisi, ayni kunlarda jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi loyihasi ham mehnat migrantlariga doir maqsadlar o'rin olgan. Bular ishga joylashtirish bo'yicha xorijiy tomon bilan kelishuvlar sonini oshirish, fuqarolarni xorijiy hamkorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kasb-hunarga va chet tillarga o'qitish tizimini kengaytirish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, shu jumladan, bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish, noqonuniy tashqi mehnat migratsiyasi va odam savdosiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish kabi jihatlarda o'z aksini topishi kutilmoqda.

Bashorat YUNUSOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

MILLAT FIDOYILARI

Sirojiddin Sidqiyning SO'NGGI SAFARI

shoir tavalludining 140 yilligi oldidan



Asad ASIL, yozuvchi

Hayotning ne-ne mashaqqati va iztiroblariga limmo-lim haqiqatlarni qog'ozga tushirib, avlodlarga, ayniqsa, yoshlarga yetkazish muhim masala. Zero, hozirgi to'kis hayotimiz osonlikcha qo'lga kiritilgan emas...

bo'ldi. O'ttinzich yillar boshida Sidqiyning ona qishlog'i Xondayliqdan bu yerlarga ko'chib tusha boshlagan yurtdoshlari shoirni jon-dillari bilan bag'irlariga oldi, hushar uyushtirib, mo'jazgina hovli-joy ham tiklab bergan. Shoir esa bu hovlini nodir anvoyi gul-u daraxtlar bilan yasantirib, umri so'nggiga qadar ushbu makonda hayot kechirdi...

Ijod olamiga nazar tashlasak, serqirra adibning ustoz, do'st va shogirdlari behos edi. Ular safida eng mehribon, sofdil, jonkuyar shogirdi sifatida Abdulla Nosirovni yuksak ehtirom bilan e'tirof etamiz.

Jadid aybnomasi tufayli hayoti ta'qib-u quvg'inlar ostida o'tgan shoirlik vatandoshlarimizning g'uhohlari nima edi? O'qib-o'rganaylik, bilimdonlikda jahonga chiqib, haq-huquqlarimizni tiklaylik, butun odam bo'laylik kabi odilona davlat uchun nahotki otish, oshish, surgunlarga badarg'a qilish o'rinni va adolatli bo'lsa?! Aynan shunday jazolardan qochgan shoirlik Sidqiyning endigina balog'at yoshiga yetgan chog'ida vagona xufiyona joylashib, katta vodiya qochish orqali jonini saqlab qolgan edi. Bular o'tgan asr boshidagi gaplar. Unga qadar tortilgan jabr-u sitamlarni aytib, ado qilib bo'lmaydi...

Sirojiddinbek ziyoli oilada tug'ilib o'sgan. Otasi Mirzohid Oxund domla Xondayliq qishlog'ida hovlisida maktabdori, ya'ni diniy va dunyoviy ilm-ziyoni tarqatish bilan mashg'ul edi. Hazrat domla nomi bilan tanilgan bu insondan bilim olish ilinjida Chimkent va Sayram tomonlardan, hatto katta vodiya — Farg'onadan ham talabgorlar kelib, ustozning mo'jazgina hujralarida yashashar, bilim olishdan bo'sh paytlarida tomorqa ishlariga yordamlashishardi. Bag'rikeng ustoz hech kimdan haq so'ramasdi. To'rt o'g'il va bir qizning o'ranchasi Sirojiddin o'n to'qqiz yoshga yetguncha shundayin saxovatpesha xonadonda yashadi. Sirojiddinbek katta shahar — Toshkentga o'tlanib, qolgan umri ilm izlash, Vatanni ozod va farovon darajaga ko'tarishdagi betinim kurashlar bag'rida o'tkazdi. Bu haqda "Chirog'im, men Sidqiymen, Handaqliqiyman" deb nomlangan kitobimda batafsil yoritgan edim. Endi esa vatandoshlarimga, ayniqsa, yoshlarimizga, qalbi odamiy fazilatlar, insongagina xos mehr-oqibatga limmo-lim azizlarni zero haqida baholi qadrdar yozmoqdaman. Zero, bunday fazilatlar kamyob bo'lib borayotgani sir emas.

Sirojiddin Mirzohid o'g'li — Sidqiyning Handaqliqiy hayotida, avvalo, serqirra fazilatlar sohibi Mirzohid ota, ya'ni Hazrat domlanning ibratomuz umri alohida o'rin egallaydi. Shu bilan bir qatorda, ustozning sevimli shogirdi, Toshkentga borib, mudarris domla darajasiga ko'tarilgan Imomali otaning xizmatlarini alohida aytib o'tish o'rinni. Qolaversa, Toshkent bag'rida ne-ne mashaqqatlar bilan yashagan Sirojiddin Sidqiyning davrdosh do'stlari, ustozlari Kamiy, Iffat, Rizoiy, Tavallo, Behbudiy, Kamol Turbatiy, Fitrat, Cho'lpon kabi vatanparvarlarning Sirojiddin Sidqiyni juda katta ijobiy ta'sirlari bo'lgan. Sibir surgunidan qochib, katta vodiya azob-uqubatlar og'ushida yashar ekan, bag'rikeng ziyolilar unga tayanch-madad bo'lgan. Bu borada birgina Rizoiy Andijoniyning yillar davomida Sidqiyni ko'rsatgan g'amxo'rlikini aytib o'tish kifoya.

Umr bo'yi ta'qibu, quvg'inlardan qochqacha Toshkentga qaytgan Sirojiddin Sidqiyning so'nggi safari Parveztepa atrofi



kim o'qimay uvul bo'lib yotgan mingdan ortiq noyob kitoblarimizni sovg'a qilamiz. Ham Sidqiyning uy-muzeyi, ham ma'naviyat markazi paydo bo'ladi. Tepalik va uning chor taraf yanayam ko'rkamlashib, haqiqiy guzar va sayrgohga aylanadi. Qo'rg'ontepa bilan tengdosh chinorlar bag'rida turistik mehmonxonasi yaratilsa, ularning tarixini yozib bersangiz, ajoyib ma'naviy va madaniy meros qoladi kelajakka".

Yarim asrga yaqin muddat yosh avlodga o'zbek tili va adabiyotidan bilim berib

kelgan umrdoshim shunday noyob fikrlarini aytar ekan, yuragim orqaga tortib ketdi! Jufti halolimning umri nahotki tugab borayotgan bo'lsa?!

Ha, bu haqiqat edi. Jahondagi go'zallikda ham, donolikda ham, sabr-u bardoshda ham havas qilsa arzigulik umr yo'ldoshimni "Tez yordam" Zangiotaga olib ketib, ikki kundan so'ng... muzdakkina qilib olib kelib berdi. Uning ezgu fikr-maslahatlari menga meros bo'lib qoldi.

Shu kezda ham Sirojiddin Sidqiyning ming bir azoblar bilan yashagan hayoti menga tayanch bo'ldi. Ulug' shoir bog'i



ning va na bunisning uhdasidan chiqur. Ular dangasalar, tekinox'rlar va yalqovlar jamoasi erurki, ta'ma bilan kechinurlar".

Sidqiyning nasihatlarini o'qib o'tirar ekanman, yelkamda kimningdur kafini sezdim. Bosh ko'tarib, bog' rahbari Dilshod Tillaxo'jayevni ko'rdim.

— Bu qadar yonib kuyavermang, — ko'ngil so'radi u. Uning hamma voqeadan xabari bor ekan. — Siz xalqimizga, Sidqiyni kabi ulug' insonlar hayoti va ijodi bilan, ayniqsa, yoshlarni xabardor etishga keraksiz.

— Men oldin o'tishim lozim edi... Axir jufti halolimdan olti yosh ulug'ligim bor ediku.

— Hay-hay, unaga demang! — yupatdi Dilshod Tillaxo'jayev. — Demak, siz yashashingiz kerak, bu olamda qiladigan ishlarizning hali bor ekan. Yaratgan Egamizning izmi shu!

Bu voqeadan keyin o'zimni ancha qo'lg' oldim. Jufti halolimning menga aytgan o'sha maslahatlari, aniqrog'i, vasiyatlarini amalga oshirishga kirishishim kerak. Shu kunning eritasigayug Bo'stonliq tumani hukimining qabuliga kirdim. Hokim ham menga taskin berib, biz birgalikda qishloqqa chiqdik. Sirojiddin Sidqiyning uy-muzeyi va kutubxona quriladigan joylarni ko'rdik. Ayniqsa, ikki ming yildan ziyod umr ko'rayotgan bobochinorlar u kishida chuqur taassurot uyg'otdi.

— Qo'rg'ontepa va bobochinorlar tarixini ham yaxshilab yozib bering, ularni abadiylashtirish va turizmga oid masalalar bilan alohida shug'ullanamiz, — dedi hokim osmono'par go'zalliklarga havas bilan tiklar ekan. — Yoningimizda shunaqa ajoyib tabiat go'zalliklari turib, biz qayoqlardan mo'jizalar izlab yuribmiz.

Darhaqiqat, shunday. Inson odatda shundoq yonginasidagi baxtni negadir uzdoqlardan qidirib yuradi. O'z yurtidagi qahramonlarga ham, yurtning go'zal sarhadlariga ham chin dildan e'tibor qaratavermaydi. Vaholanki, biz yurtimizning har qirich yerini asrab-avaylashimiz, vatanparvar, fidoyi insonlarni doim xotirlashimiz lozim. Ayniqsa, kelajak tayanchi bo'lgan yosh avlod esa bu boradagi ezgu tashabbuslarda faol ishtirok etsa, hayotimizda tub ijobiy o'zgarishlar ko'lamini yanada kengayaveradi. Zotan, insonning ezgu maqsadi, orzu-niyatlari, avvalo, Vatandagi ulg'ayadi, Vatanda amalga oshadi.

TURIZM



SAYYOHLAR OQIMINI KO'PAYTIRISH yo'lidagi sa'y-harakatlar, talablar va istiqbolli rejalar



Shavkat BOBOJONOV, Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v. b., tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Joriy yil 26-aprelda davlatimiz rahbarining "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ham ayni maqsadlarga qaratilgan.

Yuqori sayyohlik salohiyati

O'zbekiston turizmi rivojida qadimiy shaharlar qatorida Buxoro alohida salohiyatga ega. Shahar qadimdan jahonda, ayniqsa, musulmon dunyosida ma'lum va mashhur bo'lgan. Bugungi kunda vohaning 13 tuman va shaharlarida 500 ga yaqin ziyoratgoh, muqaddas qadamlar saqlangan. Birgina Buxoroning 555 gektarlik Eski shahar qismida 133 dan ortiq ziyoratgoh (83 tasi saqlangan) va 40 ga yaqin qadimiy qabriston (11 tasi saqlangan) joylashgani tarixiy ma'lumotlarda uchraydi.

Bugun mavjud imkoniyatlardan foydalanib, ziyorat turizmi yo'nalishida tasavvuf allomalari, ayollar nomi bilan ataluvchi, hunarmandlik pirlari bilan bog'liq, avliyo darajasiga ko'tarilgan mashoyix, olim, podsho va hukmdorlarning maqbaralarini hamda shifobaxshlik xususiyatiga ega ziyoratgohlar kabi yangi ziyorat yo'nalishlarini ochish mumkin. Shuningdek, konfessional mahalliy va xalqaro darajadagi ziyorat joylarini ishlab chiqish imkoniyatlari mavjud.

Turizming oltin qoidasi

Har bir sayyoh va ziyoratchining Buxorodan yuqori kayfiyat va yaxshi taassurot bilan ketishi yoki qaytib kelishga qiziqish bildirishi, boshqalarga tavsiya etishi sayohat yo'lbo'shlovchilarining (gid) mahorati va yuksak madaniyatiga ham bog'liq. Ayni vaqtda ular xos tashqi ko'rinish, yuqori til bilish darajasi, yuksak muomala va nutq madaniyati, yuqori darajadagi tarixiy bilimlar, har qanday savollarga javob bera olish qobiliyati va salohiyatiga ega bo'lishi kabi mezonlar ham talab yuqoriligi sezilyapti. Bu esa, kelajakda vohada bu turdagi sayohat boshlovchilarni tayyorlash zaruratini tug'dirmoqda.

Ma'lumki, mehmonxonalar mehmon va mezbom munosabatlari to'qnashadigan asosiy obyekt hisoblanadi. Mehmonxona xodimi "sayyoh doim haq" degan qoidaga

Sayyohlik — "madaniyatlar o'rtasidagi muloqot" orqali tinchlikni saqlash va xalqlarning yaqinlashishiga hissa qo'shadigan, shuningdek, bugungi globallashayotgan va integratsiyalashayotgan jarayonlarda daromad olish uchun ega salohiyatli sohaga aylanib bormoqda. Buni yaxshi anglagan mamlakatlar sohani rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekistonda ham turizm sanoatini iqtisodiyotning ilg'or sohasiga aylantirish, mamlakatimizga sayyohlar oqimini kengaytirish borasida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

amali qilishi kerak. Bu mehmondo'stlikning asosiy mezon bo'lib, qabul qiluvchi tomon (mezbom) sayyohga daromad manbai, foyda obyekt deb emas, avvalo, mehmon sifatida qarashi kerak. Chunki har bir davlat ziyoratchi va sayyohlari o'z talablari asosida mehmonxonani tanlashadi. Masalan, yaponiyalik ziyoratchilar mehmonxonada nanna, ventilyatsiya tizimi, namlikni aniqlaydigan moslama, ISO (International Standards Organization) xalqaro standartlashtirish tashkilotining sertifikatini, ekologik zarar yetkazmaydigan mahsulotlar, muzlatkichda muz bo'lishini talab etadi va shunday imkoniyatlarga ega mehmonxonalarda qolishni afzal ko'radi.

Sayyohlarga xizmat ko'rsatishning muhim masalalaridan yana biri gigiyenik dushlar bo'lib, ular barcha mehmonxonalarda ham mavjud emas. Musulmon mamlakatlari ziyoratchilari ko'p hollarda xonalarda gigiyenik dush bo'lishini alohida talab etadi. Gigiyenik dush — mukammal tahorat olish va najosatdan poklanishga mo'ljallangan qulay, yengil shlangdan iborat qo'l dushi bo'lib, asosan, Osiyoning musulmon davlatlarida keng tarqalgan. Odatda, suv havo qog'oz o'rtida yoki birga ishlatiladi. Hojatxona qog'oz va unga yaqin materiallarning atrof-muhitga



salbiy ta'siri tufayli yuqoridagi tartibdan foydalanishadi.

Sayyohlik yirik sanoat bo'lib, deyarli barcha sohalar bilan chambarchas bog'liq. Ulkan tizim hisoblangan turizm ham, albatta, yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Ularni aniqlashda sayyoh va ziyoratchilarning fikr-mulohazalari, taassurotlar, taklif va tavsiyalari muhim ahamiyatga ega.

Ziyorat turizmi markazi

Istiqbolda xorijiy ziyoratchilar sonini keskin oshirish maqsadidagi targ'ibot ishlar ustuvor vazifaga aylangan. Xususan, xorijda mamlakatimiz turizm salohiyatini manzilli targ'ib qilish chora-tadbirlari rejasida Buxoro ziyoratgohlariga alohida e'tibor qaratilgan. Yetti pir ziyoratgohlarini Indoneziya, Malayziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Turkiya, Misr, Afg'oniston mamlakatlari targ'ib etish orqali 120 mingga yaqin ziyoratchini, Eron davlatiga islom me'morchiligi targ'iboti orqali 152 ming, Rossiya va Ozarbayjon mamlakatlari "Ahmad Qodirov, Oloshshukur Poshshozoda izidan" nomli turlar bilan Mir Arab madrasasini targ'ib qilish orqali 50 mingga yaqin xorijiy ziyoratchilarni jalb qilish belgilandi.

— Targ'ibot natijalarini statistik ma'lumotlar orqali tahlil qiladigan bo'lsak, Buxoroga tashrif buyurgan xorijiy sayyoh va ziyoratchilar soni 2021-yilda 49 ming nafar, 2022-yilda 552,6 ming nafarni tashkil etgan, — deydi Buxoro viloyati turizm boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Bobir To'xsanov. — Ularning 57 foizi MDH davlatlari, 21 foizi Yevropa davlatlari, 20 foizi Osiyo mamlakatlari, 2 foizi Amerika qit'asi va boshqa mintaqalar hissasiga to'g'ri kelgan. Har yili uch mingga yaqin malayiyalik sayyohlar O'zbekistonga tashrif buyurayotgani va bu ko'rsatkich oshib borayotgani sa'y-harakatlarning natijasidir. Kelgusida bu ishlarni yanada oshirish va jadalashtirish ko'zda tutilgan.

"Samarqand, Toshkent qatori Buxoro shahridagi muqaddas qadamlar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo'lgan "kichik haj" dasturini rivojlantirish va jadalashtirish ishlari olib borilmoqda. Mazkur jarayonda xorijdagi turizm elchilarimizning o'rni juda katta. Ayni maqsadda Pokiston, Avstriya, Hindiston, Yaponiya, Qozog'iston, Koreya Respublikasida sayyoh-elchilari, Malayziyada "Ziyorat turizmi" elchisi tayinlandi. Ular orqali Buxoroga xorijiy ziyoratchilarni faol jalb etish choralari ko'rish maqsadga muvofiq.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.
43690 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonada chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Abdurauuf Qorjovov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxonasi: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05